



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
ДЕКАБР
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 25 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Boltabayev Bahtiёр Sabirjonovich РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ТУРКИСТОННИ МУСТАМЛАКАГА АЙЛАНТИРИЛИШИ ВА ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА ЯНГИ ТИЗИМИНИ ЯРАТИЛИШИ.....	7
2. Axmadov Dovudxon Xabibulloyevich ILK O'RTA ASRLAR SUG'DDAGI МАНКАМА VA DEVON ISHLARI TARIXI.....	11
3. O'razmetov Behzod Gulimmat o'g'li, Rozmatova Muhabbat Reyimbayevna, Xalmetova Sapargul Yuldashevna O'RTA OSIYO BOY MADANIYAT O'CHOG'I	13
4. Yusupova Mahliyo Esanovna TEMURIY MALIKALARDAN SAROY MULK XONIM HAQIDA.....	15
5. Ҳожимуродова Шоҳида Ҳусановна ҶАДИМГИ ХИТОЙ ТАРИХИЙ МАНБАЛАРИДА МАРКАЗИЙ ОСИЁ (ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИГА ДОИР)	17
6. Davletovna Madina Allaberganova AMIR TEMUR - MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI SIFATIDA TUTGAN O'RNI.....	19
7. Kadirova Dilbar Baxtiyorovna TARIX DARSLARIDA GURUHLAR BILAN ISHLASH	21
8. Rahmatova Lola Sayfullayevna TARIX-KELAJAK KO'ZGUSI	23



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ТУРКИСТОННИ МУСТАМЛАКАГА АЙЛАНТИРИЛИШИ ВА ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА ЯНГИ ТИЗИМИНИ ЯРАТИЛИШИ

Болтабаев Бахтиёр Сабиржонович

Наманган Давлат Университети

Архившунослик кафедраси катта ўқитувчи

Телефон:+998939455577

baxtiyor5577@gmail.com

АННОТАЦИЯ:

Мазкур мақолада Россия империяси томонидан Туркистонни мустамлакага айлантирилиши, Туркистонни мустамлакага айлантиришда Англия Россия рақобатлари, туркистонни мустамлака айлантирилгандан сўнг вақтингачалик бошқарув низомини қабул қилиниши, бошқарув соҳаларини ислоҳ қилиниши. “Харбий ҳалқ” бошқаруви атамасини туркистонга нисбатан кўлланилиши ёритилган.

Калит сўзлар: Вақтингачалик бошқарув низоми, бошқарув тизимини ислоҳ қилиниши, янги бошқарув тизимини ўрнатилиши, харбий ҳалқ бошқаруви тушунчаси.

Россиянинг Марказий Осиё минтақасига қизиқиши XVIII асрдан бошланади ва худди Буюк Британия Ҳиндистондаги сисёсатидек у хам савдо алоқаларини ўрнатиш учун узининг Шарқий сиёсатининг асосий мақсадини эълон қиласди.

XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб Марказий Осиёдаги сиёсий вазият кескин ўзгаради ва бунга эса Россия империясининг ушбу минтақадаги фаол ҳарбий ҳаракатлари сабаб бўлади. Россия армиясининг ҳарбий юришлари 1864 йилда бошланиб, ўша йили Туркистон ва Чимкент шаҳарларининг босиб олиниши билан яқунланди. Шуни таъкидлаш керакки, ҳарбий ҳаракатлар Россия империясининг ташқи сиёсати билан боғлиқ эди. 1861 йилда Ўрта Осиёда ҳарбий ҳаракатлар зарурлигини рад этиб келган ҳарбий вазир Д. А. Милютин, 1863 йилда ҳарбий аралашувни кўллаб-куватлаб келган Оренбург губернаторининг қўйида келтирилган далилларидан кейингина рози бўлади, яъни "... Марказий Осиёда уюштирилган ҳаракатлар орқали Англия ўз эътиборини Полшадан чалғитади" – дейилган эди¹. Россия империясининг кенгайишини иккита сабаб билан изоҳлаш мумкин: 1) ҳарбий-сиёсий қарама-қаршилик (машхур "катта ўйин", яъни жаҳон харитасидаги Россия ва Британия империяларининг рақобати) ва 2) иқтисодий (савдо транзит йўллари учун кураш).

1854 йилда алоҳида Сирдарё линияси қўмондонлиги ташкил этилади, бу империя таркибида янги ҳарбийлаштирилган маъмурий-худудий бирликни яратишни англатарди. Кўшин қўмондонига Сирдарёдаги қўшинларни, истеҳкомлар ва флотилияни бошқариш ишониб топширилган эди². Бошқача қилиб айтганда, хукумат минтақадаги мавжуд ва потенциал мулкларининг тақдирини армияга топширди. Ўрта Осиё 1864 йилдан 1895 йилгacha бўлган даврда Россия империяси томонидан босиб олинган.³ XVIII асрда ўрта Осиёда учта давлат ташкилоти (Бухоро амирлиги, Қўқон хонлиги, Хива хонлиги) ва қозоқ жузлари мавжуд эди. Юқорида айтиб ўтилган давлат субъектларининг сиёсий парчаланиши ва иқтисодий таназзули уларнинг Россия империясининг чекка худудига айланишининг асосий омиллари бўлиб хизмат қилди. Европа давлатларининг (Буюк Британия, Франция,

1 История России. XIX–начала XX в. // Учебник под редакцией В.А. Федорова. -М.: Зерцало, 2004. -С.311.

2 1854 г. июля 5. О командующем Сырдарьинской линией // Полное собрание законов Российской империи. Собрание второе (ПСЗРИ-II). Т. XXIX. Отд. 1. № 28392. – С. 679.

3 Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII–нач. XX вв. Т. : Фан, 2009. С. 12–13,113.



Голландия) шарққа кириб боришига ғарбий Европанинг капиталистик асосда жадал иқтисодий ривожланиши сабаб бўлди. Ривожланаётган мамлакатлар, ўз маҳсулотлари ва арzon хом ашё учун бозорларга муҳтоҷ эдилар¹. Аммо Россия империясида иқтисодий эмас, балки ҳарбий-сиёсий омиллар ҳукмронлик қилган булиб (чунки Россия эндиGINA капиталистик ривожланиш йўлига кираётган эди) ва бу фикрга, яъни "... чор Россиясининг мустамлакачилик сиёсати капиталистик рақобатнинг натижаси эмас, балки бу капиталистик рақобатдан қочиш воситаси эди" - қўшилмасликни иложи йўқ эди². Россия империяси Туркистонни бошқаришни унибоси булишнинг дастлабки босқичида, яъни генерал М. Черняев Тошкентни эгаллаб олгандан кейин ташкил қила бошлади. Тошкент рус қўшинларининг минтақанинг ичкарисига янада олдинга силжиши учун плацдарм вазифасини ўтади. Қизиги шундаки, бошиданоқ Тошкент аҳолиси ўзлари учун савдолашган" ... тошкентликлар Россия фуқаролигини қабул қилишни ташкил қилган шартлар, уларга рози бўлиш Тошкентни Россияга эмас, балки Россияни Тошкентга қўшишни англатади. Улар солиқ тўлаш ёки ёллаш истагини билдирумайдилар"³.

Маъмурий жиҳатдан Туркистон вилояти Оренбург генерал-губернаторлигининг бир қисмига айланади (у 1867 йилгача унинг бир қисми эди). М. Г. Черняев биринчи ҳарбий губернатор этиб тайинланди. Вақтинчалик вазиятнинг асосий мақсади "... бошқарувнинг умумий тамойилларини белгилаш орқали янги рус ерларида тинчлик ва хавфсизликни ўрнатиш эди. Барча ҳокимият, ҳарбий ҳокимият кўлида тўпланган ва маъмурий органларга фақат ички ҳаёти ўзгаришсиз қолган аҳоли назоратини ишониб топширилган эди⁴. Туркистон вилояти учта қисмга бўлинган булиб: ўнг қанот, марказ ва чап қанотлардан иборат эди. Иржар ва Хўжанд кўлга киритилгандан кейин Сирдарё туманига ўзгартирилган ўнг қанот Аралск, 1-Форт (Казалинск) ва Перовск шаҳарларини камраб олган; марказ Туркистон ва Чимкент туманларидан иборат эди; чап қанотга Пишпек, Мерке, Верний, Аулиеата шаҳарлари киради.

Туркистонга нисбатан илк бора фуқаролик маъмуриятини, яъни маҳаллий аҳоли учун масъул бўлган ва минтақанинг маъмурий-худудий бўлинишига мос келадиган ўзининг вертикал ва горизонтал кучига эга бўлган маҳсус ҳокимият тармогини яратиш таклиф қилинади. Маҳаллий аҳолини бошқаришда эса Марказий орган вилоят бошлигининг минимал идораси бўлиши керак эди.

Лойиҳа биринчи марта маъмурий тизимга маҳаллий аҳоли вакиллари лавозимларининг аниқ номенклатурасини киритади ва бирламчи маъмуриятни ижтимоий-маданий принципга мувофиқ тақсимлайди. Кўчманчилар ва ўтрок аҳоли орасида янги амалдорлар пайдо бўлади. Шу билан бирга, лойиҳада уларни тайинлаш мезонлари ва тартиби белгиланмаган булиб, аслида вилоят раҳбарига бошланғич маъмурият вакилларини тасдиқлаш ва лавозимидан четлаштириш хукуқи берилган эди.

Лойиҳа маҳаллий аҳоли ичидаги низоларни ҳал қилиш бўйича анъанавий ҳалқ судини – қозоқлар учун бий судини ва резидентлар учун Қози (шариат) судини сақлаб қолади. Шу билан бирга, маҳаллий аҳолининг бошқаруви аслида ҳалқ суд жараёнидан чиқариб ташланди ва фақат назорат органига айланади. Фақат вилоят раҳбари шариат судининг энг жирканч қарорларини бекор қилиш хукуқини олади.

1865 йилда Туркистон вилоятини бошқариш тўғрисидаги вақтинчалик Низом кучга киради ва бу ҳарбий ва фуқаролик ҳокимиятининг бир кўлда тўпланиш тизмини тасдиқлайди⁵.

Маҳаллий аҳолидан мансабдор шахсларни сайлаш кўчманчилар ўртасидаги волост қурултойларида ва ўтрок ҳалқ йиғинларида бўлиб ўтарди. Маҳаллий аҳоли маошли лавозимларга уч йил мuddатга, маошсиз эса бир йил мuddатга сайланар эди.

Маҳаллий аҳоли вакиллари волост ва маҳаллий ҳокимият органларининг қуйидаги

1 Абдурахимова Н.А., Рустамова Г.К. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX–I четверти XX вв. Т. : Университет, 1999. 163 с.; Павлов В.И. Формирование индийской буржуазии. М. : Изд-во вост. лит., 1958. 319 с.; Левковский А.И. Особенности развития капитализма в Индии. М. : Изд-во вост. лит., 1963. 589 с.

2 Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). -М.: ГИЗ, 1921. -С.28.

3 Голос. 24 ноября 1865 г. №325.

4 Отчет по ревизии Туркестанского управления, произведенной по Высочайшему повелению сенатором, гофмейстером графом К.К. Паленом. Краевое управление. -СПб.: Сенатская тип., 1910. -С.6.

5 Временное Положение об управлении Туркестанской областью // Полное собрание законов Российской империи. Собрание второе. – Т. XL. – 1865. – Отд. 1. – № 42372. – С. 876–881.



лавозимларига сайланар эди: халқ суди аъзолари ва аъзолигига номзодлар, округ полиция бўлими аъзолари ва аъзолигига номзодлар, шахар бошлари, шахар гласнилари, халқ хўжалигининг тижорат маслаҳатчилари, суд, шахар оқсоқоллари ёрдамчилари билан, катта ва кичик бийлар шунингдек бу лавозимларга номзодлар билан оқсоқоллар, волост судининг аъзолари хам кирав эди. Бундан ташқари, шахар ва волостларда солиқчилар (саркорлар), ариқ оқсоқоллари (мироблар) ва дала бошлиқлари (девон-бегилар) сайланиши мумкин эди.

Бунга параллел равишда харбий вазирлиги Туркистон ҳарбий округи тўғрисидаги Низомни ишлаб чиқган эди. 1867 йил 11 июлда Александр II "Туркистон генерал-губернаторлигини бошқариш тўғрисидаги вақтингчалик Низом лойиҳаси" ни тасдиқлади. Вилоятнинг биринчи генерал-губернатори генерал-адъютант К.П. Кауфман бўлади. Унга чексиз ваколатлар берилади. Расмий равишда Туркистонда ҳукумат "ҳарбий-халқ" маъмурияти деб номланган тизимни киритади. Бошқарувнинг асоси сифатида қуйидаги принциплар ўрнатилади: 1) ҳарбий ва маъмурий ҳокимиятнинг бўлинмаслиги ва ҳокимиятнинг бир қўлда тўпланиши; 2) маҳаллий аҳолига сиёсий характерга эга бўлмаган ички бошқарувни таъминлаш ва хоказо¹.

Туркистон генерал-губернаторлиги дастлаб икки вилоятдан иборат эди: Еттисув ва Сирдарё. Кейинчалик Зарабшон (1865 йилда ташкил топган, кейинчалик Самарқанд деб ўзгартирилган), Фарғона (1876), Амударё бўлими (1873 йилда ташкил топган ва Сирдарё вилояти таркибига киритилган) ва (1881) Каспийорти вилоятлари ташкил топган эди. Вилоятлар уездларга, уездлар эса волостларга бўлинган эди. Вилоятлардаги маҳаллий маъмуриятни ҳарбий губернаторлар бошқарган. Уларнинг қўлида маъмурий ҳокимият, полиция, суд ва ҳарбий тизим тўплланган эди². Уездлар уезд бошлиқлари томонидан бошқарилган. Уезд бошлиғи бир вактнинг ўзида полиция ходими, полиция бошлиғи, земство бошлиғи, шахар ҳокими, ер ва солиқ бўлимининг раиси бўлган³. Бошқарувга маҳаллий аҳоли "туземец"лар ҳам жалб қилинган. Асосан маҳаллий маъмурият вакиллари ёрдамчи рол ўйнаган. Губернаторлар "сайланган" оқсоқолларни (овул ва волостларга) тайинлардилар, улар маъмурий ва полиция вазифаларини бажаардилар. Шунингдек, солиқ йиғиши ва сувни аҳоли ўртасида тақсимлаш учун маҳаллий кадрлар жалб қилинар эди (арик-оқсоқоллар). Кизиги шундаки, маҳаллий маъмурият ўлканинг эски зодагонларини ишга олишдан қочган, буни шарқона деспотизмни рад этиш билан рағбатлантирган ва бу масала тадқиқчиларидан бири: "... бизнинг ҳукуматимиз собиқ ҳукмдорларнинг меросхўрларини бойитишга эмас, балки маҳаллий аҳолининг манфаати ва фаровонлигига қаратилган қатъий қонунийликни жорий этиш орқали (волост раҳбарларисифатида вилоятда Россия ҳукуматига хизмат қилган зодагонларни танқид қилиш ва хоказо) олдинги сунистеъмолликлар билан бузилган ушбу аристократик фамилияларга нисбатан, эҳтимол, чоралар кўрилади; улар ўзларига ўз оиласини мерос қилиб бошқарадиган одамлар сифатида эмас, балки халқнинг иродаси билан, эгаллаб турган лавозимлари учун қонун билан танланган одамлар сифатида қарашлари керак" ёзган эди⁴. Ҳукуматнинг барча ҳаракатлари эски хизматчи аристократияга путур етказиш ва эски анъана ва тушунчалар билан боғлиқ бўлмаган янги бюрократияни яратишга қаратилган эди. Аммо бу тамойилларни маъмурият ҳаётида, айниқса, қабилавий алоқалар жуда кучли бўлган кўчманчи аҳоли ўртасида тўлиқ қўллашнинг имкони бўлмаган, улар кўчманчиларни бошқаришда бий ва маннопларга таянишга мажбур бўлган.

Юқоридаги келтирилган манбалардан хulosа қиладиган бўлсак Туркистон ўлкаси мустамлакага айлантирилган сўнг барча соҳаларда ислохотларни амалга оширади. Бошқарув тартиблари ислоҳ қилинади. Бошқарув тизимларида маҳаллий аҳоли вакилларидан бошқарув лавозимларига тайинланмайди, агарда тайинланадиган ҳолат юзага келса энг қуий лавозимларга тайинланган.

1 Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсоном, командированный для ревизии края по Высочайшему повелению. -СПб. : Б.м., 1883. -С.3.

2 Пален К.К. Краевое управление. -С.10.

3 Проект отчета генерал-адъютанта К.П. Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867-25 марта 1881 гг. -СПб.: 1885. -С.85.

4 Туркестанские Ведомости. 30 октября 1873 г. №43.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхат:

1. История России. XIX–начала XX в. // Учебник под редакцией В.А. Федорова. -М.: Зерцало, 2004. -С.311.
2. 1854 г. июля 5. О командующем Сырдарьинской линией // Полное собрание законов Российской империи. Собрание второе (ПСЗРИ-II). Т. XXIX. Отд. 1. № 28392. – С. 679.
3. Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII–нач. XX вв. Т. : Фан, 2009. С. 12–13,113.
4. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г.К. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX–I четверти XX вв. Т. : Университет, 1999. 163 с.; Павлов В.И. Формирование индийской буржуазии. М. : Изд-во вост. лит., 1958. 319 с.; Левковский А.И. Особенности развития капитализма в Индии. М. : Изд-во вост. лит., 1963. 589 с.
5. Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). -М.: ГИЗ, 1921. -С.28.
6. Голос. 24 ноября 1865 г. №325.
7. Отчет по ревизии Туркестанского управления, произведенной по Высочайшему повелению сенатором, гофмейстером графом К.К. Паленом. Краевое управление. -СПб.: Сенатская тип., 1910. -С.6.
8. Временное Положение об управлении Туркестанской областью // Полное собрание законов Российской империи. Собрание второе. – Т. XL. – 1865. – Отд. 1. – № 42372. – С. 876–881.
9. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированный для ревизии края по Высочайшему повелению. -СПб. : Б.м., 1883. -С.3.
10. Пален К.К. Краевое управление. -С.10.
11. Проект отчета генерал-адъютанта К.П. Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867-25 марта 1881 гг. -СПб.: 1885. -С.85.
12. Туркестанские Ведомости. 30 октября 1873 г. №43.



ILK O’RTA ASRLAR SUG’DDAGI MAHKAMA VA DEVON ISHLARI TARIXI.

Axmakov Dovudxon Xabibulloevich

+998 91 522 62 26

dovudxon.axmadov.xon@gmail.com

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. Ilk o’rta asrlar Sug’ddagi mahkama va devon ishlari tarixi, hujjatlar tuzulishi, ularning tasnifini belgilashda asosiy manbalar Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari hisoblanadi. Ularda davlat boshqaruvida amal qilgan mahkamachilik tizimi, mamlakatdagi qonunchilik va ijro masalallari, davlat boshqaruvida amal qilgan nazorat vazifalari kabi masalalarni bilish mumkin. Ushbu maqola Ilk o’rta asrlar Sug’ddagi mahkama va devon ishlari tarixi haqida.

Sug’dda hali klassik davlatchilik mavjud bo‘lmaganligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, davlat tashkilotlari, jumladan, devon xizmatida ham ayrim keyingi o’rta asr devonlaridan farqli jihatlari ko‘zga tashlanadi. Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlariga asoslanadigan bo‘lsak, Panch hokimligi devoni hukmdor saroyida joylashgan bo‘lib, devonxonada maxsus xattotlar faoliyat olib borishgan. Ular hukmdorga itoat etishgan. Buni Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlarni tadqiq etish asnosida ko‘rish mumkin.

Mug‘ tog‘i hujjatlari Devashtich va uning atrofidagi a’yonlari hamda davlat mansabdorlarining o‘zaro yozishmalari, xo‘jalik hisobotlari, sarflangan oziq-ovqat va pul harajatlarining reyestro‘yxatlari, soliq yig‘imlari va sarflari, dehqonchilik, chorva va hunarmandchilik mahsulotlarining kirim va chiqimlari haqidagi dalolat guvohnomalari hamda tilxatlarini o‘zida jamlagan. Hujjatlar orasida Panch hokimi Devashtich nomi bilan bog‘liq farmonlar, turli shaxslarga ko‘rsatmalar davlat boshqaruv tamoyillarini tahlil qilishda muhim manbadir.

Hujjatlar mazmuni va amalda tatbiq sohalari bo‘yicha bir necha turlarga bo‘linib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin: huquqiy hujjatlar, farmoyishlar, molivaviy hisobotlar, vasiqalar (tilxatlar), maktublar (turli shaxslar o’rtasidagi o‘zaro yozishmalar), diplomatik hujjatlar, xabarnomalar (bildiruv hujjatlari), xo‘jalik kirim-chiqim qaydlari.

Mug‘ hujjatlari VII-VIII asrlar boshlaridagi Panch hokimligi saroyi xo‘jaligi va uni boshqarish bilan bog‘liq asosiy lavozimlarni egallagan shaxslar haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi. Masalan, yuqorida qayd qilingan *framandar* lavozimida ishlagan Utt ismli shaxs faoliyat doirasi g‘oyat keng bo‘lgan. Bu shaxs ismiga ko‘ra turkiy xalq vakili bo‘lib, saroy xo‘jaligini boshqargan. A-1, A-2, A-3, A-6, A-16, A-18, B-11, B-13, B-15, B-18, B-19 raqamli hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha, Utt zimmasiga Panch hokimligiga qarashli barcha qishloq xo‘jalik tarmoqlaridan markazga keladigan hamda markazdan viloyat bo‘ylab tarqatiladigan mahsulotlar taqsimoti ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan¹.

Framandar nomiga bitilgan A-2, A-3, A-16 raqamli hujjatlar asosan maktubot-xat janri ko‘rinishida rasmiylashtirilgan. Aslida esa bu hujjatlar vazifasi nuqtai nazaridan farmonlar edi. Shu bilan birga ular buyurilgan vazifani bajarish to‘g‘risida hisobot hujjati deb hisoblangan: «va bu nomani (xatni) sen oqlov hujjati sifatida o‘zingda saqla», ya’ni hujjatda mayning qolgan qismi muhrlanishi va buyruqnomaning shu nusxasi tilxat o‘rnida saqlanishi lozimligi uqtirilgan². Ayni shu tarzdagi holat V-3, A-10, A-7 va boshqa hujjatlarda ham uchrab, bu guruh sug‘dshunoslikda «tilxatlar» deb nomlangan.

Hujjatchilik an’anasida u yoki bu hujjatlarni, ayniqsa tilxatlarning sanasi-yili, oyi va kunlarini belgilash qat’iy amal qilgan. Sana hujjatning boshi yoki oxirida ko‘rsatilib, birinchi yoki uchinchi shaxs tomonidan yozilgan. Ba’zan hujjat oxirida «Bu xat ikki nusxada tayyorlandi. Ularning birini sen hisobot uchun saqla», deb ta’kidlanadi. Matnda bu so‘z sug‘dcha «*patsaxv*», ya’ni «keyin beriladigan javob» ma’nosidagi atama bilan belgilangan. Jumladan, A-16 hujjatining sanasi nisbiy era sanasi bo‘lib, bu o‘rinda matnning oxirida «Devashtich podsholigining ikkinchi yilidir. Oyi-xvareznich, kuni-naxran ruch». Ushbu buyruqnomaga muhrlandi podsho Devashtich tomonidan va yozildi ikkinchi nusxa podsho farmoniga ko‘ra», deb qayd etilgan. Mug‘ hujjatlarida har bir podsho o‘zi taxtga kelishidan boshlab yil hisobi yuritgani qayd etilgan. Oy va kun kalendar hisobi

1 СДГМ III... – С. 132.

2 Исҳоков М.М. Унтуилган подшоликдан хатлар... – Б. 26.



esa asosan zardushtiylik kalendar sistemasini davom ettirgan¹.

Arab istilosiga qadar Sug‘dda o‘ziga xos ko‘rinishdagi yil hisobi amal qilgan. Jumladan, Sug‘dda, umuman eroniy va turkiy solnomalarda yil hisoblari ma’lum hokim yoki podshoning taxtga chiqishidan boshlangan. Bunday holatni sug‘d-buddaviy matnlarida ham uchratamiz. Podsholar yoki hukmdorlar biror bir favqulodda hodisa yuz bermasa, yangi yil boshida Navro‘z kunlarida, ya’ni mart oxiridan aprel oyi o‘rtalarigacha taxtga o‘tirganlar. Bu o‘z navbatida yil hisoblaridagi muayyan aniqlik uchun ham xizmat qilgan².

Mug‘ arxivi orasida Sug‘d podshosi Tarxun erasining 10-yiliga oid hujjat saqlangan (Nov.3, Nov.4), shuningdek, Devashtich hokimligi bilan bog‘liq 14 yilni (708-722 yy.) qamrab olgan xatlar guruhi ma’lum³. Hujjatlarning boshlov va yakunlov qismlari an’anaviy ko‘rinishda, ayniqsa Devashtichga murojaat qiluvchi xatlarda dabdabali jumlalar ishlataladi: «Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz»ga. Ba’zi hollarda yuqori lavozimli shaxslar nomidan tuzilgan hujjatlarda qisqa murojaat shakllari uchraydi⁴.

Hujjatchilikda bu qadar aniq hisobchilik an’anasi boshqaruv mahkamachiligining tashkiliy pishiqligini ko‘rsatadi. Hujjatlarning hisobotli deb qaralishi ilk o‘rta asr huquqiy munosabatlarining takomilligiga ham ishorat qiladi. Shundan xulosa qilib aytganda, ko‘pgina farmon mazmunidagi hujjatlar hokim Devashtich xatharining nusxasidir. Ularning asl nusxalari Devashtich tomonidan tasdiqlangan va ba’zan loy muxr bilan mustahkamlangan. Podshoga tegishli muhr izi tushirilgan bulla (loyga bosilgan muhr izi, ya’ni naycha qilib o‘ralgan hujjatni chizimcha bilan o‘rab, ustiga loy yopishtirilgan va shu loyga muhr bosilgan) yetib kelgan. Unda tog‘ ho‘kizi tasviri va «ushbu hujjat ishonchli» («ishonch ramzi», «asl») degan mazmunda sug‘dcha yozuv saqlangan⁵. Ikki, uch nusxada tuzilgan hujjat mahsulotni qabul qiluvchi shaxs, uni topshiruvchi va framandar uchun bittadan nusxada bitilgan va mazmuniga ko‘ra «teng ma’noli», «bir xil» deb atalgan. Tilxat, ko‘rsatma, buyruq hujjatlari ilk o‘rta asr Sug‘dida xo‘jalikni boshqarishda va boshqa hukmdorlar bilan olib borilgan siyosiy muloqotlarda, ayniqsa arab istilosи davrida, o‘ziga xos diplomatik munosabatlar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Panch saroyida Devashtichga va bevosita framandarga bo‘ysunuvchi lavozim egalari haqida ham yetarli ma’lumotlar mavjud. Masalan, davlat mahkamasining boshlig‘i dapirpat lavozimi. Bu lavozim atamasi ikki qismdan iborat: *dapir* - «yozmoq, yozish», *pat* - «boshliq», ya’ni kotiblarning boshlig‘i degan ma’noni anglatadi. A-5 raqamli hujjatda bu lavozim egasiga to‘langan ish haqi to‘g‘risida ma’lumot berilgan⁶.

A-6 raqamli hujjatda parvonak kirok lavozimi qayd etilgan. Uni nashrlarda «hujjat tuzuvchi» deb izohlashgan. Lekin bu shunchaki hujjat tuzuvchi lavozimi emas, bu vazifani kotibiyat - *dapirpat* boshchiligidagi mahkama bajargan. Parvonak kirok esa maxsus hollarda podsholarning yoki hokimlarning mukofotlarini va hayru ehsonlarini amalga oshirish bilan bog‘liq hujjatlar guruhi bilan shug‘ullangan⁷.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исхоков М.М. Унтилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992.
2. Отахўжаев А. Суғд шаҳрининг турк ҳокими. (В-8 Муғ тоғи ҳужжати асосида) // Шарқшунослик. - Т., 2001.
3. «Согдийские документы с горы Муг» / А.А.Фрейман. Описание публикаций. Вып. I. - М.: Востлит., 1962. –90 с.; Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица. Вып. II. - М.: Наука, 1962. - 222 с; Хозяйственные документы / Чтение, перевод и комментарии М.Н.Боголюбова и О.И.Смирновой. Вып. III. - М.: Наука, 1963. –132 с.
4. Ставиский С.Я. Дворцовое хозяйство пенджикентского владельца // Советское востоковедение. 1957.

1 Исхоков М.М. Унтилган подшоликдан хатлар... – Б. 26.

2 Отахўжаев А. Суғд шаҳрининг турк ҳокими ... – Б. 41.

3 Согдийские документы с горы Муг. Вып. III. – С. 57-67; Ставиский С.Я. Дворцовое хозяйство пенджикентского владельца // Советское востоковедение. 1957. – С. 93-94.

4 Ставиский С.Я. Дворцовое хозяйство пенджикентского владельца.... – С. 93-94.

5 Согдийские документы с горы Муг. Выпуск II... – С. 72-185.

6 Исхоков М.М. Унтилган подшоликдан хатлар... – Б. 25-55.

7 Исхоков М.М. Унтилган подшоликдан хатлар... – Б. 53.



O'RTA OSIYO BOY MADANIYAT O'CHOG'I

O'razmetov Behzod Gulimmat o'g'li

Xorazm viloyati Gurlan tumani

30 - son matabning tarix fani o'qituvchisi

Rozmatova Muhabbat Reyimbayevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

30 - son matabning tarix fani o'qituvchisi

Xalmetova Sapargul Yuldashevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

34 - son matabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqlolada O'rta Osiyo uyg'onish davri, hamda ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy va ilmiy asarlarni yoshlar tarbiyasida o'rni, shuningdek bu borada birinchi prezidentimizning fikrlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, renesans, o'zbek, xalq, yozuv, president, I.A.Karimov, olim, davr, tarix.

Hozirgi kunda O'zbek xalqi va O'rta Osiyo tarixini o'rganish natijasida yurtimiz qadim zamonlardan boshlab rivojlanganini bilishimiz mumkin. Bunga sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mayjud bo'lgani haqida qadimgi Baqtriya, So'g'd, O'rxun, Xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy - tasviriy san'at asarlari guvohlik beradi. Darhaqiqat, O'rta Osiyoni qadimgi madaniyat beshiklaridan biri deya olamiz. Bizga ma'lumki, O'rta Osiyoda "Uyg'onish davri" deb atalgan bosqich g'arbdagidan oldin sodir bo'lgan. Shu o'rinda, g'arb olimlarining fikrini keltirib o'tamiz: "Sivilizatsiya sharqda tug'ildi - g'arbda ulg'aydi". Darhaqiqat, shunday, O'rta Osiyolik olimlar tomonidan yaratilgan kashfiyotlar va ilmiy meroslar asosida g'arbda ana shunday sivilizatsiya paydo bo'ldi.

Mavjud adabiyotlar va fikrlar tahlili asosida Markaziy Osiyodagi xalqlar Milliy madaniy Uyg'onishni uch davrga bo'lishi mumkin:

1. IX-XII asrlar arab bosqinidan keyingi davr.
2. XIV-XV asrlar mo'g'ul istilosidan keyingi davr.

Shu o'rinda ta'kidlash o'rini bo'lar ediki, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun albatta, mamlakat iqdisodiy tomondan rivojlangan va tinch hayot ta'minlangan bo'lishi kerak. Ushbu davrga kelib shunday vaziyat yaratildi. Davlat hukmdorlari ma'rifatparvar bo'lib ilm fanga rahnamolik qildilar. Sharqda uyg'onish davri va madaniyatning yuksalishi haqida akademik M.M. Xayrullayev "Mustaqillik va uyg'onish, mustaqillik va yuksalish uzviy bog'liqidir, u bizdan aql-idrokni, bilimni, iste'dod-u qobiliyatni, faollikni, kuch-g'ayratni talab etadi". Shu o'rinda Birinchi Prizidentimiz I.A.Karimovning shu xususdagagi fikrlarini ham keltirib o'tamiz: "*O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyat, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'lqinining paydo bo'lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdosotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor, nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan*".

O'rta Osiyo uyg'onish davri o'ziga xos edi. Chunki turk xalqiga xos bo'lgan madaniyat bilan uyg'unlashgan holda takrorlanmas va boshqa xalqlar uchun namuna bo'la oladigan boy madaniyat hamda ilm-fan rivoji o'rta osiyo renesanssining asosiy belgilaridan bo'ldi desak, xato bo'lmaydi.

O'rta Osiyoda uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos belgilari quyidagicha:

- dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;
- tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o'rganishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;
- insonga muhabbat, uning axloqiy, aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o'rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e'tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish.



Darhaqiqat, ota bobolarimiz tomonidan yaratilgan boy meros bilan faxrlansak arziydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2014-yil may oyida Samarqand konferensiyasida ta'kidlaganidek “Men O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Misr Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida bo'lganimda, buyuk bobokalonimiz Ahmad al-Farg'oniy tomonidan yaratilgan nilomerni ko'rib, bu ulug' ajdodimizning ilmiy dahosi oldida yana bir bor hayratga tushish baxtiga muyassar bo'ldim” deb takidlagani ham bunga bir misoldir.

Fazovi trigonometriya asoschisi deb tan olingen, o‘zining matematika va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari bilan shuhrat qozongan yana bir buyuk alloma Abu Nasr ibn Iroqdir. Uni haqli ravishda “Ikkinchি Ptolomey” deb ataydilar. Bu albatta ota-bobolari o'tmishdoshlardan faxrlanish tuyg'usini yosh u qari albatta his qilishi aniq. Yoshlarga buyuk ajdodlar haqida o'qitish orqali ularni ajdodlarga munosib farzand bo'lish uchun harakat qilishlari va eng muhimmi o'tmishi bilan faxr tuyg'usi shakllanadi.

Tarix darslarida buyuk allomalarimizning bizga qoldirgan meroslarini aytib, ularni ilm fanga qiziqtirish juda muhim hisoblanadi. Bunda nafaqat tarix darslari, balki boshqa fanlarda ham bu malumotlardan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensianing ochilish marosimidagi nutqi – 16.05.2014
2. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining tarix fani darsliklari.
3. www.tarix.uz
4. www.tadqiqot.uz
5. Internet materiallari.



TEMURIY MALIKALARDAN SAROY MULK XONIM HAQIDA

Yusupova Mahliyo Esanova

Buxoro shahar 35-umumiyl

o’rta ta’lim maktabi tarix fani

o’qituvchisi.

muhammadmahmudovich@mail.ru

Telefon:998 (91) 4075811

*Yashil maysadan o’zga hech kim qabrimni
yopmasin, toki g’ariblar qabrini yopmoq
uchun shu giyohning o’zi kifoyadir.
Zebunniso*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix zarvaraqlarida bitilgan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda buyuk jasorat sohibalarining nomlari keltirib o’tilgan. Ayollar orasida hukmdorlar, oqila maslahatg’oylar, olimalar, shoiralalar yetishib chiqqan. Sharq mamlakatlarida ularni ko’plab uchratish mumkin. Temuriylar sulolasiga mansub oqila, donishmand, tadbirkor, aql-zakovat sohibasi Saroy Mulk xonim haqida qiziqarli ma’lumotlar beriladi.

Kalit so’zlar: zarvaraq, ulus, ko’ragon, haram, Bibixonim, chopar, lashkargoh, muhr, tamg’a, farmon, elchi, jom’e masjid, maqbara.

Saroy Mulk xonim

Saroy Mulk xonim Chig’atoy ulusiga mansub mo’g’ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo’lib, 1341 yilda tug’ilgan. Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni o’z nikohiga kiritgach, “ko’ragon” unvoniga musharraf bo’ldi. Bu ibora mo’g’ulcha so’z bo’lib, “kuyov” degan ma’noni bildiradi. Amir Temur mo’g’ul xonining kuyovi, ya’ni “Amir Temur Ko’ragon” nomini olgan edi.

Saroy Mulk xonim haramdag'i barcha malikalardan ulug’rog’i hisoblanib, “katta xonim”, yoxud “Bibixonim” deb e’zozlanishiga sabab, uning aql-zakovati, did-farosatlari ekanligi, fikrlash doirasining kengligidadir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatlari, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo’lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan. Ayniqsa, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroy Mulk xonim doimo birga yurgan. O’ta ziyrak, tadbirkor Saroy Mulk xonim sultanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o’zining oqilonqa maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur oshkora bo’lmasada, uning maslahatlariga o’zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan. Naql qilishlaricha, Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda, Isfaxonning qamali ko’pga cho’zilib, qo’shinni ozuqa bilan ta’minalashga mablag’ yetmay qoladi, shunda Amir Temur Samarqandga chopar yo’llab, Saroy Mulk xonimga maktub jo’natadi. Maktub qisqa bo’lib, “Qo’shining zahirasi tugadi, xazinadan zar yuboring”, deyilgandi. Saroy Mulk xonim maktub mazmunidan ogoh bo’lgach, maktubga javoban “Ulug’ amirim, zaringiz tugagan bo’lsa, siyosatingiz ham tugadimu?” – deb yozadi va uni choparga tutqazadi.

Amir Temur maktubni olgach, o’ylab-o’ylab bir qarorga keladi: lashkargohda so’yb yeyilgan qo’y, qaramol, ot va tuya suyaklarini o’sha kuniyoq yig’dirib, turli hajmlarda qirqtirib, katta hajmdagisiga katta qiymat, kichik hajmdagisiga kichik qiymat belgilab, unga po’lat muhrni qizdirib tamg’a bostiradi hamda muvaqqat pul o’rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, qo’shni shahar va qishloqlarda suyak pulga qo’shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfahon sharari taslim bo’lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi.

Amir Temur saroyida joriy qilingan tartibga ko’ra, chet ellik elchilarni qabul qilish marosimlarida hukmdor yonida xotinlari ham ishtirok etishgan. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixoning yozishicha, 1404 yil 8-sentabr dushanba kuni Amir Temur Samarqand chetidagi “Dilkusho” bog’ida elchilarni qabul qiladi, qabul marosimida hukmdorning yonida Saroy Mulk xonim boshliq



boshqa xotinlari ham yuzlariga pardalash o'tirganlar.

Saroy Mulk xonim madrasa tolibi ilmlarining ahvoldidan tez-tez xabar olib, ularga homiylik qilib turgan.

Amir Temur Hindiston yurishidan qaytib kelgach, 1399-1404 yillarda o'zining sevimli bekasi saroy Mulk xonimga atab jom'e masjidini qurdiradi va bu “Bibixonim” jom'e masjidi nomi bilan mashhur bo'ladi, hamda O'rta Osiyodagi obidalarning eng yirigi hisoblanadi. Bibixonim masjidi serhasham bezaklarining o'ta nafisligi kishi diqqatini o'ziga jalb etadi. Rang-barang shakl va naqshlar o'sha davr ustalarining nozik did va yuksak mahoratidan dalolat berib turadi.

1405 yil 18 fevralda Amir Temur O'trorda vafot etgach, Samarqand taxtiga uning nabirasi Xalil Sulton Mirzo o'tirdi. Ibn Arabshoh bergen ma'lumotiga ko'ra, Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod Mulk beginm 1408 yilda Saroy Mulk xonimni zaharlab o'ldirgan. Saroy Mulk xonimning jasadini o'zi qurdirgan madrasasi yonidagi maqbaraga “tosh tobut”ga solib, mo'miyolab dafn qilingan. 1941 yil iyun oyida Go'ri Amir maqbarasida abadiy uyquga ketgan Amir Temur, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo va Ulug'bek Mirzolarning qabrlari ochib tekshiriladi. Saroy Mulk xonim qabri ham ochilib, jasadni tekshirish maqsadida olib ketishadi va keyinchalik yana Samarqandga olib borib qo'yilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimdan farzand ko'rmagan, ammo o'g'li Shohruh Mirzoni, suykli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzo va boshqa Mirzolarni bevosita zukko, donishmand, aql-zakovatli, farosatli, idrokli va sevimli Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi. Yaxshi niyatli, iymonli odamlar hamma davrlarda e兹gulik, go'zallik, poklikka intilib yashaganlar va ularning nomlari tarix zarvaraqlarida abadiy muhrlangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.H. Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”. T.,1990;
- 2.Ibn Arabshoh. “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). T.,1992;
- 3.V. Cherevanskiy. “Amir Temur”. T.,1993;
- 4.T. Fayziyev. “Temuriy malikalar”. T.,1994,
- 5.Rui Gonsales de Klavixo. “Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat” kundaligi



**ҚАДИМГИ ХИТОЙ ТАРИХИЙ МАНБАЛАРИДА МАРКАЗИЙ ОСИЁ
(ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИГА ДОИР)**

Хожимуродова Шохида Хусановна

Сирдарё вилояти ХТБ га қарашли
санатория туридаги №70 сонли мактаб интернати
тарих фан ўқитувчиси
Тел ракам: 99 854 37 39

Аннотация: Ушбу мақолада қадимги Хитой олимларининг тарихий қарашлари ўша даврда жамиятда ҳукмрон мағкуралар таъсирида шаклланган, умумий тарзда Хитой давлатининг ва унда яшовчи халқлар тарихи кенг ёритиб берилган. Хитой тарихининг алоҳида моментлари Ўрта ва Шарқий Осиё қадимги тарихига оид қимматли маълумотлар ва масалалар хусусида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: «Шу цзин» («Тарихий ривоятлар китоби»), «Чуньцю» (Лу подшоҳлигининг милоддан аввалги 722 йилдан 481 йилгача солномаси), «Цзо чжуань» (Цзо Цю-Мининг Чжоу даврининг солномаси), «Чжонъго цэ» («Курашаётган подшоҳликлар ҳақида китоб»)

Қадимги Хитой тарихини ўрганувчи тадқиқотчилар кўплаб ёзма манбаларни кўрсатиб ўтишлари мумкин. Бу манбалар турли хил бўлиб, асосан тарихий асарлардан иборат.

Қадимги Хитойда биринчи тарихий асарлар милоддан аввалги I минг йилликнинг иккинчи ярмида пайдо бўлган. «Шу цзин» («Тарихий ривоятлар китоби»), «Чуньцю» (Лу подшоҳлигининг милоддан аввалги 722 йилдан 481 йилгача солномаси), «Цзо чжуань» (Цзо Цю-Мининг Чжоу даврининг солномаси), «Чжонъго цэ» («Курашаётган подшоҳликлар ҳақида китоб») ва бошқа Чжоу даври охирида ва Ханъ сулоласи даврида ёзилган асарларда Хитойнинг қадимий тарихини ёритиб бериш ҳамда қадимги подшоҳликлар солномасини ёритишига дастлабки қадамлар кўйилган.

Милоддан аввалги I асрда Қадимги Хитойда кейинчалик нафақат Хитойда, балки Узок Шарқнинг бошқа бир қатор мамлакатларида тарихшуносликнинг ривожига катта таъсир кўрсатган тарихий асар пайдо бўлади. Бу асар Хитойнинг энг қадимги даврларидан бошлаб, то милоддан аввалги II аср охиригача бўлган давр тарихини ёритган бўлиб, шу даврнинг энг йирик мутафаккирларидан бири Сима Цяннинг (милоддан аввалги 145-90 йиллар) қаламига мансуб. Ўзининг «Ши цзи» («Тарихий ёзишмалар» ёки «Тарихий хотиралар») асарида энг қадимги даврлардан бошлаб то милоддан аввалги I асргача бўлган Қадимги Хитой тарихини тизимий тарзда акс эттириб, жуда катта тарихий материални умумлаштира олган. Сима Цяннинг ушбу китоби хитой тарихшунослигининг энг муҳим бўлимларидан бири бўлган «Чжэнши» («расмий тарих») бўлимини очиб берган.

Қадимги Хитой олимларининг тарихий қарашлари ўша даврда жамиятда ҳукмрон мағкуралар таъсирида шаклланган. Шундай бўлса-да, уларда умумий тарзда Хитой давлатининг ва унда яшовчи халқлар тарихи кенг ёритиб берилган. Хитой тарихининг алоҳида моментлари Ўрта ва Шарқий Осиё қадимги тарихига оид қимматли маълумотларни ҳам ўз ичига олади.

Хитойшунос олимлар, жумладан тарихчилар томонидан ҳам хитой манбалари таржима қилиб келинган. Натижада собиқ шўролар даврида чоп этилган “Қадимги дунё тарихидан хрестоматия” («Хрестоматия по истории древнего мира») китобларида бошқа манбалар қаторида бу манбалардан ҳам қисқача таржималар берилган. Бу маълумотлар Қадимги Хитой ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ҳаётини ёритишида катта ёрдам беради.

Яна шуни айтиб ўтиш керакки, XX аср бошларида Хитой тарихшунослигига қадимги хитой тарихий манбаларига танқидий қараш пайдо бўлади. Қадимги ёзма ёдгорликлардаги маълумотларнинг ҳақоний эканлигини исбот этиш керак деган фикрлар илгари сурилди. Хитой худудини археологик жиҳатдан ўрганишда катта қадам XX аср 50-80 йилларда кўйилди. Қазишмаларда янги усууларнинг қўлланилиши, хусусан, катта майдонларда қадимги манзилгоҳларни қазиб ўрганиш натижасида Хитой қадимги тарихи манбашунослигини қадимги хитой жамиятининг неолит давридан Ханъ давригача бўлган қимматли маълумотлар билан бойитишига имкон берди. Қадимги Хитой тарих тарихшунослиги масаласига келсак шуни таъкидлаш зарурки, анъанавий хитой тарихий фани учун иккита ўзига хос хусусият



ажратилади: биринчидан, уларда хитой маданияти кўшни халқлар маданиятидан доимо устун бўлган деган тасаввур ҳукмрон; иккинчидан, афсоналар ва асотирлардаги воқеалар тарихий факт билан уйғун деб, Хитойдаги давлатчилик тарихи қадимийлаштирилган эди.

Россияда хитойшунослик XIX асрдан ривож топиб, унга Қадимги Хитой тарихининг билимдони Н.Я.Бичурин асос солди. Рус олимлари асосан қадимги хитойликларнинг маданияти ва мафкурасини ҳамда ёзма манбаларини ўргандилар.

ХХ асрда университет ва институтларнинг шарқшунослик ва тарих факультетларида «Қадимги Шарқ тарихи», «Қадимги цивилизациялар тарихи» фанлари ўрганила бошланди. Бу фанлар дастурларида Қадимги Хитой тарихи курсига алоҳида ўрин ажратилган. Жумладан, «Қадимги Шарқ тарихи» бўйича дарслик ва ўкув қўлланмаларида Қадимги Хитойнинг энг қадимги даврлардан бошлаб илк ўрта асрларга бўлган давр тарихи ёритилган. Сўнгги йилларда дарслик ва ўкув қўлланмалари қайта таҳrir этилиб, янги талаблар асосида яратилмоқда. Булар сирасига сўнгги йилларда чоп этилган ўкув адабиётларни киритиш мумкин. Бундан ташқари, бугунги кунда Интернетдан маълумотлар қидириб топиш ва улардан фойдаланиш катта аҳамият касб этади. Бугунги кунга келиб, Қадимги дунё тарихидан Интернетда ҳам ўзбек тилида ўкув дастуларидан ташқари бирорта ресурс топа олмадик. Ваҳоланки, “Қадимги Шарқ тарихи”, “Қадимги дунё тарихи” курсларидан ўкув-услубий мажмуалар, ўкув қўлланмалар чоп этилган ва ўкув жараёнида фойдаланиб келинмоқда. Албатта, уларда бизни қизиқтираётган мавзу жуда қисқа тарзда (бир абзацдан ёки 1 варакдан) баён қилинган. Аммо рус тилида бундай ресурслар турли сайтларда, айниқса Россия олийгоҳларининг сайтларида рефератлар тарзида, кутубхоналар сайтларида эса асарлар ва мақолалар тарзида учрайди. Ана шу ресурсларни ўзбек тилига таржима қилиб, таълим порталларимизни бойитсак, мақсаддага мувофиқ бўларди.

Адабиётлар рўйхати

1. Бан Гу. Чжан Цян, Ли Гуангли таржимаи ҳоли. Ханнома. Ўримчи-1994, 452 бет.
2. Си Ма Цян. Фарғона тазкираси. Тарихий хотиралар (“24 тарих” даги Ўрта Осиёга оид материаллар тўплами). Урумчи- 1989, 489-490 бетлар.
3. История народов Узбекистана, том 1, стр.110. Ташкент-1950.
4. Матбообоев Б.Х. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида Фарғона. 35-36 бетлар. Тошкент-2001/
5. Анорбоев А. Қадимги ва ўрта асрларда Ахсикент. «Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона» тўплам.. 10-11 бетлар. Тошкент-2009.



AMIR TEMUR - MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI SIFATIDA TUTGAN
O'RNI

Davletovna Madina Allaberganova
Xiva shahar 1-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 544 55 41
madina.allaberganova_1sc@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Amir Temurning intizomli qo'shin tuzishi, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishi, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan ish tutishi, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishi, qo'shindagi jangovor ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishganliklari haqida.

Kalit so'zlar: Sohibqiron, harbiy-siyosiy, davlat boshqaruvi, Amir Temur, sultanat.

Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tarkiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi.

Amir Temur sultanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devondan) dan iborat bo'lgan dargohni oliv hukmdorning o'zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan.

Tashqi va ichki favqulodda vaziyatlardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar ot mingan choparlari bo'lgan. Butun sultanat bo'y lab bir kunlik yo'l oralig'ida yomxonalar tashkil etigan. Har bir yomda 50-200 ot-ulov tutilgan. Sohibqiron mamlakani boshqarishda o'z yaqinlariga suyandi.

Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur'oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiylar va oliv darajada bo'lgan. Payg' ambar avlodlari, shayxul-mashoyixlarga hurmati cheksiz edi. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan.

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yo'lidagi ichki va tashqi siyosati asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi.

Sohibqiron intizomli qo'shin tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yollashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shindagi jangovor ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan.

Amir Temur qo'shiniga chorvadorlar qatori o'troq aholidan ham askar to'plagan. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Amir Temur qo'shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovor tartibi takomillashib borgan, o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan.

Sohibqiron Amir Temur jahon siyosiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. U o'z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

Tashqi savdoda ham Samarqand katta o'rın tutgan. Samarqandda turli mamlakatlardan, xususan, Xurosondon ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, choy va boshqa mollar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi. Amir Temur 35 yil davomida yilni boshqardi.

Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo'lting'iga qadar bo'lgan



g'oyat katta hududni qamrab olgan saltanatni vujudga keltirdi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'yundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Tarixdan hikoyalar. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Temur tuzuklari. Amir Temur. Toshkent. 2018-yil.



TARIX DARSLARIDA GURUHLAR BILAN ISHLASH

Kadirova Dilbar Baxtiyorovna
Samarqand viloyati Narpay tumani
64-maktab tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada tarix darslarida guruuhlar bilan ishlash bo'yicha interfaol usullar yoritilgan.

Kalit so'zlar: VENN DIAGRAMMASI, strategiya, guruhlarda ishlash, raqamlar..

Tarix darslarida o'quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari, umumiy o'rta ta'limga tayyorgarligiga mos hamda tarixiy materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish asosida fandan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash ta'limgarayonini takomillashtirish, ta'limga sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirishda o'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish lozim. Bunda qator usullar, didaktik materiallar yordam beradi.

“VENN DIAGRAMMASI” strategiyasi (metodi). Ushbu strategiya o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahvilay yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sentezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng 4 bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi. Strategiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'limga yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Strategiyani qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- sinf o'quvchilari 4 guruuhga bo'linadi;
- yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;
- har bir guruuhga o'zlashtirilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;
- topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi;
- liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks diagrammani to'ldiradilar.

“Beshinchisi ortiqcha” metodi “Beshinchisi ortiqcha” metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi. O'quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: -berilgan tushunchalar ro'yxatidan mavzuga taalluqli bo'lмагan tushunchalarni aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang. Tushunchalar: 1) Poseydon, Yunoniston, Afina, Shamash, Aid

- 2) Satirlar va nimfalar, Artemida, Ares, Nika, Mitra
- 3) Apollon, Basserey, Germes, Dionis, Femida
- 4) Geya, Xronos, Indra, Gipnos, Uran
- 5) Apis, Ayaks, Tesey, Gerakl, Axilles
- 6) Kentavr, Siklop, Sfinks, Sirena, Titan

“Aeroport” ta'limiyo'yini
2018-yil 3-fevralda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5326-son Farmoni e'lon qilindi. Quyidagi tenglamalarni to'g'ri yechgan o'quvchilar samolyotga biletlarni qo'lga kiritishadi va Samarqand shahriga sayohat qilishadi.



“QIZIL VA YASHIL RANGLI KARTOCHKALAR BILAN ISHLASH” METODI. O'quvchilar bilan ommaviy va guruh shaklda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobjiy natijalarni



kafolatlaydi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi) va har guruhg'a maxsus kartochkalarning alohida majmusi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

— guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

— Agar topshiriq guruhlar tomonidan to'g'ri bajarilgan bo'lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o'girilganda mavzuning mohiyotini yorituvchi “yadro” tushuncha hosil bo'ladi. Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o'quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

Tarix fanini yillar, joy va shaxs nomlari, atamalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Albatta barcha yildagi voqealar, tarixiy shaxs va atamalarni eslab qolish o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, Ikkinci Jahon urushi bilan bog'liq mavzu misolida foydalanilgan “Sirli raqamlar” metodini ko'rib chiqamiz.

Bu metod o'quvchilar xotirasini mustahkamlashda yaxshi samara beradi.



Biz ustozlar zimmasiga farzand tarbiyasidek nozik masala turibdi, shunday ekan, erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli hamda faol ishtirok etishga qodir komil shaxsni tarbiyalashda kitoblardan yordam olsak, o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.T. Xoshimov “Tarix darslarida didaktik o'yinlar” Metodik tavsiya, 2012-y
- 2.Internet saytlari va metodik qo'llanmalar.



TARIX-KELAJAK KO‘ZGUSI

Rahmatova Lola Sayfullayevna
Samarqand viloyati Narpay tumani
64-maktab tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada tarix darslarini o‘qitishga oid innovatsion g‘oyalar, interfaol usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: raqamli tarix, kelajak, o‘tmish, Narvon, usullar, sud darsi, fikrlash.

Barchamizga ayonki, o‘qituvchi dars jarayonini tashkil qilar ekan, avvalo uning samarali bo‘lishi, o‘quvchilarning to‘liq o‘zlashtirishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu sababli, darslarni tashkil qilishning turli xil usullaridan foydalaniladi.

“Raqamli tarix” usuli. Bu usul tarix darslarida quyudagicha o‘tkaziladi:

Geometrik shakllarda berilgan tarixiy voqealarning sodir bo‘lgan sanalari statistik ma’lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan sonlar aniqlanadi va mental arifmetika usulda shakllar hisoblab chiqariladi. Topilgan noma’lum son izohlanadi.

..... Amir Temur yoshdan boshlab sipohiylikka
oid mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan.

Loy jangi 1365 yil mayda Toshkent bilan Chinoz
o‘rtasidagi Chirchiq darvosi bo‘vida sodir bo‘ladi.

XIV asrning 50-60 yillarida Movarounnahrga
yaqin mustaqil bekliklarga bo‘linib ketgan edi.

Mo‘g‘iliston hukmdori Tug‘luq Temur 1360-1361
yillardamarta yurish qilgan.

. Amir Temur yoshdan boshlab madrasaga
o‘qishga borgan

Hisoblab chiqilgan natija soni yoziladi.


Maktabda o‘quvchi kishilik jamiyat bosib o‘tgan yo‘lni, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma’lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o‘quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to‘g‘ri anglashga yordamlashadi. Bizga ma’lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko‘rsatuvchi „Ko‘zgu” desak bo‘ladi va bu ko‘zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o‘z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin egallashi onson kechgani yo‘q. Shuning uchun tarixni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o‘tmishda yo‘l qo‘yligan xatolarni takrorlamaslikni, o‘tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o‘rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarda o‘zlarini mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o‘stirishga, eng asosiysi ma’naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog xodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo‘lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak. Men tavsiya qilayotgan “NARVON” usuli darsning maqsadli kechishini ta’minlovchi va uning turli elementlari orasidagi munosabatlarni tavsiflovchi faoliyatlar zanjiridir. Eng asosiysi, o‘quvchilarning yangi mavzuni to‘liq holda o‘zlashtirishlari uchun muhim bir quroldir. Yangi pedagogik texnologiya asosida yaratilgan “Usul ichida usul”,



ya’ni “Narvon” usuli tavsiya qilinadi. Ushbu usul yangi mavzuni o‘zlashtirishda eng qulaydir. Ya’ni har bir o‘quvchi dars davomida yangi mavzuni pog‘onama-pog‘ona o‘zlashtirib boradi. Shu bilan birga, har bir o‘quvchidan ziyraklik va talabchanlik talab etiladi. Natijada ushbu usulda olib borilgan darsda o‘quvchilarda bo‘shliqlar kuzatilmaydi. **“Narvon” usuli.** Bu usulni darsning texnologik xaritasi ham deyish mumkin. Chunki o‘quvchining dars davomida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari uchun samarali hisoblanadi.

Maqsad: Bilimlar cho‘qqisini zabit etish.

Quyida tavsiya etilayotgan “Sud darsi” usuli o‘quvchilarda atrofda bo’layotgan voqeahodisalarga haqiqat ko‘zi bilan qarash, o‘z fikrini aniq bayon etish, xato va kamchiliklarini tengdoshlarining bildirayotgan fikrlariga qarab tuzata olish ko’nikmasini hosil qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilar ongida ota-onaga bo‘lgan mehr-muhabbat tushunchalarini singdirish, onani e’zozlash-oliy qadriyat ekanligi, farzandning ota-ona oldidagi burchlarini his qilish tuyg’ulari usulimizning tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.



Xullas, tarix darslarida o‘quvchilar faolligi va qiziqishlarini oshirish uchun taqdim etiladigan ilg‘or pedagogik texnologiyaning turli usul va uslublaridan, didaktik tarqatma materiallardan, slaydlar asosida tashkil etilgan darslardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O‘zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990-yil.
2. H.Qobulova. O‘zbekiston tarixi fanidan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashq daftari. Qo’llanma. Buxoro, 2021-yil.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000